

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI ATROF-MUHIT BILAN  
TANISHTIRISHDA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH***Turdaliyeva Zarnigor Ulug‘bek qizi**NamDU magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bolalarga atrof-muhitni tanishtirishda texnologiyalardan foydalanish, innovatsion yangiliklarni tatbiq etish bo‘yicha fikr yuritilgan. Samarali usullar yordamida tushuntirib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** innovatsiya, konsepsiya, estetik ong, estetik tarbiya, tabiat, inson.

Kuzatishlarning tasdiqlashicha, bolalarning atrof-muhitdagi faoliyati asosan o‘z-o‘zidan, kutilmagan tarzda kechadi va buni ulardagi tabiatga bo‘lgan bunday munosabatning asosiy sababi deb hisoblash to‘g‘ri bo‘ladi Oila, mahalla, bir so‘z bilan aytganda, tevarakdagilarning, ayniqsa, maktabgacha ta‘lim muassasasi tarbiyachilarining pedagogik ta‘siri bilan bunday nojoiz faoliyat tuzatib boriladi. Mana shuning uchun ham maktabgacha yoshdayoq bolalarning tabiat haqida ishonarli ma‘lumotlarni egallashlari juda muhim.

Bolalar tabiat hodisalarini to‘g‘ri idrok etishlari uchun ularning tabiatni idrok etish jarayonini yo‘naltirish zarur. Bolalarni tabiatga oshno etmasdan va maktabgacha ta‘lim muassasasidagi ta‘lim-tarbiya ishlarida undan keng foydalanmasdan, maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni har tomonlama – aqliy, estetik, axloqiy, jismoniy jihatdan tarbiyalash vazifasini muvafaqqiyatli hal etib bo‘lmaydi.[1.B43]

O‘zbekiston Respublikasining Maktabgacha Ta‘lim Konsepsiyasiga ko‘ra, bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida o‘zaro bir-biriga bog‘liq ta‘limiy-tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi.

Aqliy tarbiyadagi asosiy vazifasi – bolalarda notirik tabiat, o‘simliklar, hayvonlar haqida ma‘lumot berish, ularning tabiat voqea-hodisalarini yetarlicha idrok eta olishlariga imkon berish.

Aqliy tarbiyaning ajralmas qismi – sensor madaniyatdir. U analizatorlarni takomillashtirish, bolalarda keyingi umumlashmalar uchun asos bo‘ladigan hissiy tajribani mustahkamlash, tabiatshunoslikka oid dastlabki tushunchalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Bolalarning tabiat haqidagi bilimlarni egallashlari ularning bilish qobiliyatlari – sensor apparati, mantiqiy fikrlashi, diqqat, nutq, kuzatuvchanlik, bilishga qiziqishi kabilar bilan mustahkam bog‘langan bo‘lishi kerak. Fikrlashni rivojlantirish va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun bolalarning tabiat narsa-hodisalari bilan tanishtirish, ularni kuzatilayotgan narsa-hodisalarni tushunishga o‘rgatish va ular orasidagi aloqa va munosabatlarni anglashlariga olib kelish kerak. Anglash

jarayonidagi tabiat hodisalari orasidagi sababiy aloqalar va munosabatlar fikrlashni rivojlantiradi.[2.B76]

Bola o‘zini o‘rab turgan atrof-muhit va tabiatning muayyan xossalarini: havoning issiq-sovuqligini terisi bilan, suyuqliklarning ta‘mini tili bilan, havodagi hidni burni bilan, tabiatdagi xilma-xil obyektlarning rangini ko‘zi bilan, tovushlarni qulog‘i bilan sezib, ya‘ni mazkur xossalar bolaning besh turli sezgisiga ta‘sir etib, shu a‘zolarida joylashgan asab hujayralari orqali bosh miyasiga borib yetib, natijada miyada tabiatning ayrim xossalari to‘g‘risida bilim paydo bo‘ladi, ularning ko‘rinishlari, qiyofalari, tasvirlari, manzaralari vujudga keladi.

Bolalarda bilishga qiziqishni tarbiyalash ham muhimdir. Bolalarga hayvonlar va o‘simliklarni qanday kuzatishni ko‘rsatish, ularning diqqatini ularning tashqi ko‘rinishi, harakatiga qaratish orqali tarbiyachi ularda nafaqat tabiat haqida bilimlarni, balki ularga mas‘uliyatli munosabatni shakllantiradi. Faqatgina har doim bolaning yoshini hisobga olish va uning diqqatini mazkur narsa va hodisadagi nimaga qaratishni bilish zarur. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida axloqiy, jismoniy, mehnat va estetik tarbiyani amalga oshirish zarur.

Bolaning axloqiy rivojlanishida unda ona tabiatga muhabbat va tiriklikka ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish asosiy o‘rin tutadi. Bolalarga bu borada eng yaqin yo‘l ular o‘sib o‘lg‘ayotgan joydir. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida hayvonlar va o‘simliklarning mavjud bo‘lsa, bolalar ularni kuzatadi va boqadi, tarbiyachiga yordamlashadi. Natijada ularda tabiatga ehtiyotkorona munosabat, mehnatni sevish va mehnat qilishga odatlanish, topshirilgan ishga mas‘uliyat o‘z-o‘zidan shakllanadi.

Bolalarda mehnatsevarlik, tabiatga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash uchun ularni o‘simliklarni sug‘orish va hayvonlarni ovqatlantirishning oddiy usullarini o‘rgatish zarur. Eng muhimi, bolalarning o‘zlari bajarayotgan ish jarayoni va natijalaridan zavq olishlariga erishish lozim. Mehnatsevarlik sifatini shakllantirish uchun bolalarni kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishtirish, ularning faoliyatiga hurmatni tarbiyalash zarur. Bolalarning tabiatda bo‘lishi va mehnatidan ularning jismoniy rivojlanishi va salomatliklarini mustahkamlash uchun foydalanish muhim ahamiyatga ega.[3.B76]

Tabiat bolalarni estetik tarbiyalashning asosiy vositalaridan biridir. Tabiatning go‘zalligi hatto eng kichik bolalarni ham o‘ziga rom qilmasdan qolmaydi. Ularni tabiatni bilish jarayonida e‘tiborlarini o‘rmonning shovqinlari, qushlarning sayrashi, barglarning shakli va rangi, gullarning hidlari, hayvonlarning harakatlariga qaratish kerak. Buning muhim jihati bola kelajakda o‘z hayotida dunyoning barcha va xilma-xil go‘zalliklarini idrok eta olishiga sharoit yaratishdir.

Multimediali ekologik o‘yinlarni ham tashqi dunyo bilan tanishish uchun darslar mazmuniga, ham erkin mashg‘ulotlarga kiritaman: sayohat o‘yinlari, topishmoq o‘yinlari, didaktik o‘yinlar, viktorinalar, jismoniy daqiqalar, barmoq o‘yinlari.

Ekologik teatr, xalq hikmatlaridan foydalanish (ekologik mavzudagi ertaklar, afsonalar) Ekologiya haqidagi bilimlarni kengaytirishning samarali usuli hisoblanadi xalq donoligi marvaridlaridan foydalanish – ertaklar, afsonalar, hikmatlar, topishmoqlar. Maqsad ongni boyitish va qalbni hayajonlantirish, qo'yilgan savollarga tayyor javob berish emas, balki bolaning tajribasi va oldingi kuzatuvlaridan foydalangan holda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo'lgan ekologik mavzular bo'yicha: "Ko'p o'rmon - buzmag, kichik o'rmon - ehtiyot bo'ling, agar o'rmon bo'lmasa, uni eking", "Tabiatga qo'l ko'tarmang, bu sizning nabirangiz uchun bo'ladi" va hokazo. Maktabgacha yoshdagi bolalarning noan'anaviy ekologik ta'lim shakllaridan biriekologik teatr, kollektivizm, mas'uliyat hissini rivojlantirishga yordam beradi, axloqiy xulq-atvor tajribasini shakllantiradi, shaxsning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Bu bolalarni ekologik ta'lim va tarbiyalashning innovatsion shakllaridan biridir.[3.B67]

Tabiat bilan tanishtirish jarayonida tarbiyachiga qo'yiladigan talablar.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilaridan bolalarni tabiat bilan tanishtirish uchun tabiat haqidagi turli fan sohalaridagi katta bilim zahiralari ega bo'lishlari, ularning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishlari, aql sohasi (noosfera)ning imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishlari, tabiatda yuz beradigan narsa-hodisalar orasidagi aloqadorliklarni izohlay olishlari talab etiladi. Ayniqsa, o'zi yashab turgan joy tabiati: fasl almashinuvlarini kuzata olishi, tabiat kalendarini tuza olishi, o'simlik va gullarni ko'paytirish ko'nikmasiga o'rganishi muhim.

Bolalarda tabiatga faol va ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash maktabgacha ta'lim tashkilotida mavjud bo'lgan hayvon va o'simliklarni oziklantirishga yordam beradi. Tarbiyachidan jonli tabiat burchagini tashkil eta olish, o'simlik va hayvonlar uchun ularning tabiatda yashashlariga yaqin shart-sharoitlar yaratish talab etiladi.

Bundan tashqari u maktabgacha ta'lim muassasasi maydonchasi va tabiat burchagida o'simliklarni sugorish va hayvonlarni boqishning agrotexnik usullarini egallay olishi lozim.

Tarbiyachining namunasi bolalarda mehnat ko'nikmalarini tarbiyalashda hal etuvchi ta'sir ko'rsatadi. Bolalarda tabiat haqidagi bilimlarni shakllantirish jarayonida tarbiyachining o'zi tabiat go'zalliklarini ko'ra olishi va tabiatda go'zallik yaratish ishtiyoqiga ega bo'lishi katta ahamiyatga ega. Zarur bilim va ko'nikmalarni egallab qolmasdan, tabiat bilan tanishtirish shakl, metod va vositalaridan foydalana olishni ham o'zlashtirishi talab etiladi.

Umuman olganda, tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etishi zarur:

- 1) jonli va jonli tabiat haqida aniq bilimlar berishi, ularning o'zaro aloqadorligini ochib berishi;
- 2) inson organizmi va uning salomatligi haqida ma'lumot berishi;

3) maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatishga doir xulq-atvor ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish;

4) tabiatdan oqilona foydalanish va uning boyliklarini ko'paytirishga yo'naltirilgan inson mehnat faoliyati bilan tanishtirish;

5) Ona-tabiatga muhabbat, uning asrab-avaylashga doir ishtiyoqni tarbiyalash.

Mazkuz muammoning dastlabki holatini aniqlash uchun kuzatish ishlarini olib bordik. Kuzatish ishlarida jarayonida tarbiyachilar va MTT xodimlari va bolalar faoliyatini o'rgandik. Shu bilan birga, MTTning tajribali metodist va tarbiyachilaridan biz tanlagan mavzuga doir taklif va tavsiyalarni oldik. Tajriba- sinov ishlari avvalida ota-onalarga quyidagi anketa savollari bilan murojaat qildik. Ular bilan o'tkazilgan anketada turli savollar o'z o'rnini egalladi. Savollarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda ota-onalarning dunyoqarash haqidagi bilimlari va o'z farzandlarining dunyoqarashini o'stirishga doir ishlari ko'lami aks etgan.[4.B75]

Katta va tayyorlov guruhi bolalari shaxsining emotsional jihatlari ham barcha o'qitish metolari ta'sirida rivojlanadi. Gap har bir metodni tanlash va qo'llashga qanday ifoda berilishda qolgan, xolos. Shuning uchun metodlarni har birining rolini ijobiy baholash mumkin. Masalan, og'zaki metodlarning roli ijobiy baholangan, chunki yorqin his-hayajonli hikoya bolalarning hissiyotlariga chuqur ta'sir qilishi, yorqin emotsional javobni keltirib chiqarishi mumkin. Ko'rgazmali metodni qo'llash, badiiy illyustatsiyalardan foydalanish, ayniqsa, yorqin kechinmalarni keltirib chiqaradi.

Pedagogika fani maktablar va ta'lim beruvchilarning ilg'or ish tajribalarini umumlashtiradi, an'anaviy ta'limning ilmiy asoslarini ko'rsatib beradi, o'qitishning zamonaviy, samarali metodlarini ijodiy ravishda izlab topishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turli yosh guruhlarida bolalar hayotini to'g'ri tashkil etish bolalar hayoti, faoliyati va munosabatlariga maqsadga muvofiq hamda tarbiyaviy ta'sirlarning butun majmuidan muntazam tarzda foydalanish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ularda boshlang'ich bilim, ko'nikma va malakalarni egallash imkoniyatlari, birgalikdagi mashg'ulotlarga intilish kuchayib boradi. Ular kattalarni hikoyalarini bajonidil tinglaydilar, ko'rgina savollar beradilar, qiziquvchanlikni namoyon qiladilar. Ayrim bolalarda mashg'ulotlarning ba'zi turlari: rasm solish, loy va plastilindan narsalar yasash, qurish-yasashga alohida qiziqish paydo bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot haqidagi ma'lum bilimlar doirasini egallagan, o'quv faoliyatiga oid eng oddiy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan bo'ladilar. Bularning hammasi kun davomida bolalar o'quv faoliyatining davomiyligini ko'paytirish imkonini beradi.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. Tolipov O'.K., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2006.

2. To‘xtayev A.S. Ekologiya Pedagogika institutlarining talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. T.: «O‘qituvchi» nashriyoti, 2001.
3. Усова А. П. Рол игры в в детском саду. Для студ. высш. пед. учеб. заведений. / Т. П. Авдулова. – М.: Академия, 2009.
4. Umarova M. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish. - T.: 2008

